

**JALOLIDDIN MANGUBERDI: VATAN OZODLIGI YO'LIDAGI BITMAS-TUGANMAS JASORAT TIMSOLI.****Djumaboev Jaloliddin Zayniddinovich***O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institute**Jangovar tayyorgarlik sikli boshlig', podpolkovnik**Tel: +99899 001 11 09*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada XIII asr boshlarida yashab, Chingizxon istilosiga qarshi mardona kurash borgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding hayoti va tarixiy faoliyati yoritiladi.. Unda sultonning shaxsiy sifatida olingan, harbiy iste'dodi, parokanda davlatni tiklash yo'lidagi sa'y-xavfsizligi hamda vatan ozodligi uchun borgan mashaqqatli janglari bayon qilingan.. Jaloliddin Manguberding vatanni himoya qilishda ko'rsatgan jasorati va matonati bugungi avlod uchun ibrat, uning milliy g'ururini kuzatishdagi ahamiyati ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Insoniyat, tarix, Xorazm, Anushteginiylar, mo'g'ul, Jaloliddin, jasorat, Parvon jangi.*

O'zbekiston tarixining eng murakkab va ayni paytda shonli sahifalari mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi nomi bilan bog'liqdir. Anushteginiylar sulolasidan bo'lgan so'nggi Xorazmshoh milliy o'z vatani, balki butun Islom olami va Sharq xalqlari uchun erk va ozodlik ramzi bo'lib qoldi. Tariximizdagi ulug' zotlar orasida mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi siymosi alohida o'rin tutadi. Anushteginiylar sulolasining so'nggi vakili bo'lgan bu zot Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxri va g'ururidir. Jaloliddin og'ir bir davrda - mamlakatning katta qismi mo'g'ullar ishg'ol qilgan, xorazmshohlar qo'shini parokanda bo'lgan va ichki nizolar avj olgan bir vaqtda tarixga chiqdi. U garchi sulton Muhammadning katta o'g'li bo'lsa-da, saroy o'yinlari va Turkon xotunning qarshiligi tufayli vorislikdan mahrum qilingan edi. Sulton Muhammad o'limi oldidan aynan Jaloliddinni o'ziga xorazmshoh etib tayinladi. Jaloliddin 11 yil davomida mo'g'ullarga qarshi 14 ta jangda qatnashib, 13 tasida g'oliblikni qo'lga kiritgan.. Uning jasorati hatto dushmani Chingizxon shunday qilib ham e'tirof qilib: "Ota o'g'il mana bo'lishi kerak!", deya ta'riflangan.

Kelib chiqishi va shakli

Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad 1198–1199-yillarda dunyoga kelgan. Uning burnida xoli (turkiyda "mank") bo'lgani sababli zamondoshlari unikburni deb atashgan, bu nom xalq

orasida "Manguberdi" deb mashhur bo'lib ketgan. Uning onasi Oychechak turkman kanizaklaridan bo'lgan.

Chingizxon qo'shinlari Movarounga bostirib kirganda Xorazmshoh davlati ichki nizolar domida edi. Jaloliddin sultonning katta o'g'li bo'lsa-da, buvisi Turkon xotun va qipchoq amirlarining qarshiligi sababli taxt vorisligidan mahrum bo'ldi. Shunga qaramay, otasi Muhammad Xorazmshoh o'limi oldidan Ashur ada orolida Jaloliddinni o'ziga sulton etib tayinladi. Jaloliddin Urganch mudofaasiga oshiqdi, biroq qipchoq amirlarining suiqasdi haqida xabar topgach, Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Xurosonga ketishga majbur bo'ldi. Niso yaqinida 700 kishilik mo'g'ul bo'linmasini tor-mor keltirishi uning birinchi g'alabalari silsilasini berdi.

Parvon jangi, mo'g'ullar ustidan birinchi yiring g'alaba. G'azna shahriga kelgan sulton bu yerda katta qo'shin to'plashga muvaffaq bo'ldi. 1221-yilda G'azna yaqinidagi Parvon jangida Jaloliddin Chingizxonning eng tajribali sarkardalaridan biri Shiki Xutuxu no'yon boshliq 45 minglik qo'shinni yakson qildi. Bu jangda Jaloliddin dunyo harbiy taktikasi tarixida birinchilardan bo'lib, otliq askarlarni otdan tushirib, piyoda holda dushmanga hujum qilish uslubini qo'llaydi. Ush mag'lub Chingizxonni shaxsan o'zi jangga kirishga va barcha kuchlarini birlashtirishga majbur qildi. 1221-yil 25-noyabrda Hind daryosi bo'yida tarixdagi eng shiddatli janglardan biri yuz berdi. Chingizxon boshchiligidagi bir necha barobar ustun bo'lgan mo'g'ul qo'shini Jaloliddin qo'shinini daryo bo'yida qurshovga oldi. Jang so'ngida, mag'lubiyat muqarrar ekanligini anglagan sulton, o'z yaqinlarini dushman qo'lga tushmasligi uchun ularni daryoga cho'ktirishni buyurdi (ba'zi manbalarga ko'ra, ayollar undan o'zidan buni o'tinib so'rashgan). Shunda so'ng, u to'liq qurollangan holda, oti bilan birga 7 metrli balandlikdan shiddatli oqayotgan Sind daryosiga sakradi va uni suzib o'tdi. Bu jasoratni hayrat bilan kuzatgan Chingizxon o'zo'g'illariga qarab: "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi kerak!" deb xitob qilgan.

Sulton Jaloliddin Manguberding Sind (Hind) daryosidan sakrashi jahon harbiy tarixidagi eng hayratlanarli va mardona voqealardan biri bo'lib, bu voqea 1221-yilning noyabr oyida (ba'zi manbalarda 24-noyabr, boshqalarida 25-noyabr yoki 9-dekabr) yuz bergan. Chingizxon boshchiligidagi 100 mingdan ortiq mo'g'ul qo'shini Jaloliddinning narxi 30 ming kishilik lashkarini daryo bo'yida yarim oylik qurshovga oladi. Mo'g'ul qo'shinlari daryoni "yoyni tatiyasi" (ipagi) kabi egallab, sultonni har tomondan qisib kelishadi.

Jangning eng qaltis pallasida, mag'lub muqarrar bo'lib qolganda, sultonning onasi, ayollari va oila a'zolari dushman qo'lga tushib, xor bo'lmasli uchun sultondan ularning o'ldirishni o'tinib so'rashadi. Shunda so'ng, sultonning buyrug'iga binoan (yoki uning ko'z oldida) ular daryoga cho'ktiriladi. Sultonning 7-8 yosh o'g'li esa asir olinib, Chingizxonning ko'z oldida qatl qilindi.

Sulton Jaloliddin dushman qurshovini yorib o'tib, daryo bo'yiga keladi. U egarini almashtirib, yangi otga minadi va yelkasiga qalqonini ilib, qo'lida bayroq bilan 7 metr balandlikdagi qirg'oqdan shiddatli oqayotgan Sind daryosiga sakraydi. Jaloliddinning bu jasoratini ko'rgan mo'g'ul askarlari uning ortidan kamondan o'q uzmoqchi bo'ladilar, biroq Chingizxon ularni to'xtatib, sultonni otmaslika buyuradi. Chingizxon barmoqlarini tishlagan holda hayrat bilan o'g'illariga qarab: "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi kerak! U olov va suv girdobidan omon chiqib, ozodlik maydoniga yetdi" deb xitob qiladi. Sulton daryoni suzib o'tib, o'ng sohilga yetib oladi. U qo'rqqoqqa chiqqach, o'z qirg'iz qilichini artib, (ayrim manbalarga ko'ra) dushman raqib qarab qilichini o'ynatib qo'ydi. U bilan birga 4000 nafar askari daryodan omon o'tishga muvaffaqiyat bo'ladi. Ush voqea yuz bergan hudud hozirgi Pokiston vaqtidagi "Cho'li Jaloliy" deb ataluvchi joy bo'lib, sultonning nomi bilan abadiylashtirilgan. Mirzo Ulug'bek o'zining "To'rt ulus tarixi" asarida ushbu voqeani sultonning ma'naviy g'alabasi sifatida ta'riflagan.

Daryodan o'tgach, sulton Hindistonda o'z kuchini qayta tikladi, yangi mulklar zabt qildi va o'z nomidan tangalar zarb qildi. U Iroq, Ozarbayjon va Gruziya tomon yurish qildi. 1225-yilda Garni yaqinida 60 minglik gruzin qo'shinini tor-mor kelib, Tiflisni (Tbilisi) egalladi. Uning atrofdagi islom hukmdorlarini mo'g'ullarga qarshi birlashtirish yo'lidagi harakatlari natija bermadi, aksincha ular sultonga qarshi ittifoq tuzdilar.

1231-yilda mo'g'ullarning keskin tungi hujumidan so'ng Jaloliddin oz sonli kishilari bilan Qurdiston tog'lariga chekindi. U yerda qaroqchi kurdlar qo'lga tushib, fojiali tarzda halok bo'ldi. Shunday qilib, 1231-yil avgustida Anushteginiylar sulolasi va buyuk Xorazmshohlar davlatining so'nggi vakili hayoti yakun topdi.

Uning siymosi san'at asarlarida ham odamlar hotirasida ham mangu aks etgan. Maqsud Shayxzoda "Jaloliddin" dramasini, yaqinda esa o'zbek va turk kinematograflari hamkorligida "Mendirman Jaloliddin" serialini yaratdilar. Jaloliddin Manguberdi siymosi Markaziy Osiyo, balki butun Sharq va G'arb tarixshunosligida o'chmas iz qoldirgan qahramonlik va vatanparvarlikning eng yuksak timsolidir. Chuqur tahlil bilan yondashadigan bo'lsak, u haqidagi ma'lumotlar asoslari unga hamroh bo'lgan va uni shaxsan bilgan zamondosh olimlarning fundamental asarlariga tayanadi. Hususan:

Sultonning shaxsiy kotibi (kotib al-insho) bo'lgan Shihobiddin an-Nasaviy o'zining "Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Manguberdi" ("Sulton Jaloliddin Manguberding tarjimayi holi") asarida sarkardaning shaxsiy xususiyatlarini nihoyatda aniq tasvirlagan. Toshqa ko'rinishi: "Jaloliddin qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, turk lafzli odam edi... burnida holi (mank) bo'lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan".

Nasaviy uni "sherlar uchun eng kuchli arslon", "yuvosh, muloyim, jiddiy, hech qachon kulmas, faqat jilmayib qo'yadigan" sifatida inson ta'riflaydi.. U adolatni ulug'lagan, haqoratli so'z ishlatmagan va nihoyatda irodali bo'lgan.

XIII asrning yana bir ulug' tarixchisi Atomalik Juvayniy o'zining "Tarixi jahonkushoy" ("Jahon fotihi tarixi") asarida Jaloliddinning harbiy mahoratiga, Sind (Ind) daryosi bo'yidagi jangiga yuqori baho bergan. Juvayniy sultonning dushman qurshovida qolgan holatini "razziyagona arslon kabi kurashdi" deb tasvirlaydi. Daryoga sakrash sahnasini esa "huddi chaqmoq kabi suvga otildi" deya badiiy va tarixiy yoritib bergan.

Buyuk munajjim va hukmdor Mirzo Ulug'bek o'zining "To'rt ulus tarixi" kitobida sultonning vafoti va uning dushmanlari tomonidan ham e'tirof etilganini alohida ta'kidlaydi.: Chingizxon Jaloliddinning daryodan o'tishdagi jasoratidan hayratga tushib, o'zo'g'illariga: "Otaga shunday o'g'il zarurki, u ikki girdob - olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi!" deb nasihat qilgan. Ulug'bek o'z asarida sultonning o'limi bo'yicha bir necha qarashlarni keltirgan: ba'zilar uni mo'g'ullar qatl etgan desa, boshqalar tog'da uxlab yotganida qaroqchilar tomonidan o'rnatilishi, yana bir guruh esa uning tasavvuf libosini kiyib, sayohatga ketganini (yashirinib ketganini) takidlagan.

Ibn al-Asir: O'zining "Al-Komil fit-tarix" ("Tarix haqida mukammal kitob") asarida sultonning keng yoritgan va boshqa manbalardagi ma'lumotlarni aniq faktlar bilan boyitgan.

Akademik olim Z.M.Bunyodov Xorazmshohlar davlati tarixini, Jaloliddin Manguberdi hosil bo'lishini chuqur tadqiq etib, o'zbek tiliga tarjima qilishga katta hissa qo'shgan.

Zamonaviy tarixchi olim DM Timoxin o'z ustida ("Svedeniya o Gruzinskom sarstve v trude an-Nasavi") Nasaviy asarini tahlil qilib, sultonning Janubiy Kavkazdagi harbiy va siyosiy vaziyat tarixini o'zgartirib yuborganini ko'rsatib berdi.

Mustaqillik yillarida Jaloliddin Manguberding nomi va xizmatlari qayta tiklandi. 1998-yilda uning 800 yilligi keng nishonlandi, Urganchda unga mahobatli haykal o'rnatildi. 2000-yil 30-Avgustda O'zbekistonning eng oliy harbiy mukofotlaridan biri - "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi.

Xulosa o'rnida, Jaloliddin Manguberdi hayoti - bu Vatan uchun jon fido qilishning oliy namunasi. Uning hayot yo'li bugungi avlodga mardlik, qat'iyat va o'z yurtiga sadoqat darsini beradi. Birinchi Prezident Islom Karimov aytganidek: "Sulton Jaloliddin siyosi buyuk Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxru g'ururidir". Uning harbiy texnikasi, quroli, Parvon jangida otliqlarni piyoda jangga vosita usuli jahon harbiy san'ati tarixida yangilik bo'lgan. Jaloliddin Manguberdi shaxsi vatan ozodligi yo'lida harbiy kuch bilan, balki milliy, ma'naviy metn iroda bilan ham kurashish mumkinligini isbotlagan buyuk siymodir.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. "Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Manguberdi" ("Sulton Jaloliddin Manguberding tarjimayi holi"), 1241-yil.
2. Alouddin Atomalik Juvayniy. "Tarixi jahonkushoy" ("Jahon fotihi tarixi"), XIII asr.
3. Ibn al-Asir. "Al-Komil fit-tarix" ("Tarix haqida mukammal kitob"), XIII asr.
4. Mirzo Ulug'bek. "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi").
5. Bunyodov ZM "Gosudarstvo Xorezmshaxov-ushteginidov (1097–1231)".
6. Ahmedov B. "Jaloliddin Manguberdi". — Toshkent: "Muxlis", 1999 yil.
7. Vohidov R. "Xorazmshohlar davlati va mo'g'ullar bosqini". – Toshkent, 2005 yil.
8. Bartold V.V. "Turkiston tarixi". — Toshkent: "Sharq", 1997 yil
9. Timoxin DM "An-Nasaviy asarida Gruziya qirolligi haqida ma'lumot". - "Kavkaz tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasi", 2019 .
10. Maqsud Shayxzoda. "Jaloliddin Manguberdi" (tarixiy drama), 1944-yil